

Maktabgacha Tarbiya Yoshi Davrida Bilish Jarayonlarining Rivojlanishi

Eshchanova Nasiba Matnazarovna

Ma'mun universiteti o'qituvchisi

eshchanovanasiba3@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish jarayonlari idrok, xotira, diqqat, tafakkur va tasavvur kabi psixik funksiyalarining rivojlanish bosqichlari o'rganiladi. Shuningdek, ushbu jarayonlarga ta'lim-tarbiya muhitining, o'yin faoliyatining va ota-onalar ishtirokining ta'siri ham tahlil qilinadi

Kalit so'zlar: sezgi, idrok, diqqat, xotira, tasavvur, tafakkur, nutq

Аннотация: В данной статье изучаются этапы развития познавательных процессов у детей дошкольного возраста, таких как восприятие, память, внимание, мышление и воображение. Также анализируется влияние образовательно-воспитательной среды, игровой деятельности и участия родителей на данные процессы

Ключевые слова: ощущение, восприятие, внимание, память, воображение, мышление, речь


Annotation: This article explores the developmental stages of cognitive processes in preschool children, such as perception, memory, attention, thinking, and imagination. It also analyzes the influence of the educational environment, play activities, and parental involvement on these processes

Key words: sensation, perception, attention, memory, imagination, thinking, speech

Kirish. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixik rivojlanishining eng muhim bosqichini tashkil etadi. Aynan shu davrda bolaning bilish jarayonlari – sezgi, idrok, diqqat, xotira, tafakkur, tasavvur va nutq kabi psixik funksiyalari shakllana boshlaydi va jadal rivojlanadi. Ushbu jarayonlar bola atrof-muhitni anglab olishida, o'zining shaxsiy tajribasini to'plashida va keyingi ta'lim olish jarayoniga tayyorlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur davrda bola faoliyatining asosiy shakli bo'lgan o'yin, shuningdek, ta'lim-tarbiya muhitining sifati va ota-onalar ishtirokining darajasi uning bilish jarayonlari rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Muxokama va natijalar. Bilish jarayonlari bolalarning atrof-muhitni anglashlari, muloqotga kirishishlari va ta'lim olishlarida asosiy ro'l o'ynaydi. Maktabgacha yosh davri mazkur funksiyalarning eng faol rivojlanadigan davridir. Bu jarayonda bolaning ruhiy olami shakllanadi, uni to'g'ri yo'naltirish esa pedagog va psixologlar zimmasidagi muhim vazifalardan biridir. Maktabgacha tarbiya yoshi davri 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan davr hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasida juda tez sifat o'zgarishlari bolishini inobatga olgan holda uni 3 davrga: kichik maktabgacha davr (3-4 yosh), o'rta maktabgacha davr (4-5 yosh), katta maktabgacha davr (6-7 yosh) ga ajratish mumkin[1]. Bola rivojlanish jarayonida kishilik avlodi tomonidan yaratilgan predmet va hodisalar olami bilan munosabatga kirishadi. Bola insoniyat qo'lga kiritgan barcha yutuqlarni faol ravishda ozlashtirib, egallab boradi. Bunda predmetlar olamini, ular yordamida amalga oshiriladigan xatti-harakatlarni, tilni, odamlar orasidagi munosabatlarni egallab olishi, faoliyat motivlarining rivojlanishi, qobiliyatlarning o'sib borishi, katta yoshli kishilarning bevosita yordamida amalga oshirilib borilmog'i kerak.

Asosan, shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi. Bog'cha yoshidagi bolalarda sezgi, idrok, diqqat, xotira, tasavvur, tafakkur, nutq, xayol, hissiyot va irodaning rivojlanishi jadal kechadi. Bola ranglarni hali bir-biridan yaxshi farq qila olmaydi. Unga ranglarning farqini bilishga yordam beradigan o'yinchoqlar, rangli kiyimlar, rangli halqalar, qutichalar va shu singari o'yinchoqlar berish maqsadga muvofiqdir. Maktabgacha yoshdagi bola tashqi olamni sezgi organlari orqali idrok etadi. Avval vizual (ko'rish), kinestetik (harakat), so'ng esa eshitish orqali idrok faollashadi. Idrokning aniqligi bolaga ko'p marta takrorlangan amaliyot orqali shakllanadi. Bog'cha yoshidagi bolalar turli narsalarni idrok qilishda ularning ko'zga yaqqol tashlanib turuvchi belgilariga (rangi va shakliga) asoslansalar ham, lekin chuqur tahlil qila olmaydilar. Bog'cha yoshidagi bolalar




kattalarning yordami bilan suratlarni analitik ravishda idrok qilish qobiliyatiga ega boladilar. Bolalar suratlarni idrok qilayotganlarida kattalar turli xil savollar bilan ularni tahlil qilishga o'rgatishlari lozim[2].

Diqqatning ixtiyorsiz holatdan ixtiyoriy shaklga o'tishi aynan shu yoshda kuzatiladi. Diqqat har qanday faoliyatimizning doimiy yo'ldoshidir. Shuning uchun diqqatning inson hayotidagi ahamiyati benihoya kattadir. Bog'cha yoshidagi bolalar diqqati asosan ixtiyorsiz boladi. Bog'cha yoshidagi bolalarda ixtiyoriy diqqatning o'sib borishi uchun o'yin juda katta ahamiyatga ega. O'yin paytida bolalar diqqatlarini bir joyga to'plab, o'z tashabbuslari bilan ma'lum maqsadlarini ilgari suradilar. Bu yoshdagi bolaning xotirasi yangi faoliyatlar va bolaning o'z oldiga qo'ygan yangi talablari asosida takomillasha boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning xotirasi ko'rgazmali, obrazli bolishi bilan xarakterlidir. Bolada ko'proq ixtiyorsiz esda qoldirish va ixtiyorsiz esga tushirish ustunlik qiladi. Bola so'zlarni hech qanday ma'nosiz takrorlayveradi. Ammo keyinchalik, kattalarning ta'sirida, ixtiyoriy esda qoldirish ham asta-sekin rivojlana boradi. Bola ravshan va emotsional rang-barang materialni oson esda qoldiradi[3]. Uch yashar bola taassurotlarini bir necha oy davomida esda saqlab tura olishga qodirdir. Bola dastlab ko'rgan va eshitganini eslab qoladi (tasviriy xotira), keyinchalik esa mantiqiy (mazmunli) xotira shakllanadi. Tarbiyachi tomonidan berilgan topshiriqlar, hikoya qilish mashqlari xotirani faollashtiradi.

Xotiraning o'sishiga o'yinlar, turli mashg'ulotlar, she'r yodlash, ertak va hikoyalar aytish hamda sayr paytida kuzatish ishlarini olib borish yordam beradi. Ushbu yoshdagi bolalar yangi so'zlarni ham, hatto chet tillardagi so'zlarni ham osongina eslab qoladilar. Lekin, bolalar materialni oson esda qoldirsalar ham, ular ko'pining ma'nosiga yaxshi tushun-maydilar va ulardan nutqda foydalanishga qiynaladilar. Kattalarning vazifasi bolalarning mumkin qadar ko'proq so'zlarni va tasavvurlarni eslab qolishigagina emas, balki ular uchun tushunarli, foydali bolgan turli bilimlarni egallashiga erishishdan iborat. Bolalar bu xildagi bilimlardan o'z o'yinlarida, rasmlarida, ustozlari yoki kattalar bilan suhbatda foydalanadilar, bu bilimlar ularning aqliy va axloqiy o'sishlari uchun xizmat qiladi. Bog'cha yoshdagi bolalarda ixtiyorsiz diqqat ustunligicha qolaveradi. Masalan, bola juda berilib ertak eshitayotgan bolsa ham, xonaga birov kirib qolsa, uning diqqati ixtiyorsiz shu ertak-dan chalg'iydi. Bog'cha yoshdagi bolalar o'zlari uchun ahamiyatga ega bolgan, ularda kuchli taassurotlar qoldiradigan va ularni qiziqtiradigan narsalarni beixtiyor eslarida olib qoladilar. Tafakkur tasviriy, amaliy va so'zli-logik shakllarda rivojlanadi. O'yinda vazifani bajarish, mantiqiy bog'liqlikni tushunish, savollarga javob topish orqali bolaning tafakkur jarayoni faollashadi. Tasavvur esa ertaklar, rolli o'yinlar va rasm chizish orqali boyiydi. Bog'cha yoshdagi bolalarning tafakkuri va uning rivojlanishi o'ziga xos xususiyatga ega.

Tafakkur bolaning bog'cha yoshidagi davrida juda tez rivojlana boshlaydi. Buning sababi, birinchidan, bog'cha yoshidagi bolalarda turmush tajribasining nisbatan ko'payishi, ikkinchidan, bu davrda bolalar nutqining yaxshi rivojlangan bolishi, uchinchidan esa, bog'cha yoshidagi bolalarning erkin, mustaqil harakatlar qilish imkoniyatiga ega bolishlaridir. Bog'cha yoshidagi bolalarda har sohaga doir savollarning tug'ilishi, ular tafakkurining faollashayotganligidan darak beradi. Bola o'z savoliga javob topa olmasa yoki kattalar uning savoliga ahamiyat bermasalar, undagi qiziquvchanlik so'na boshlaydi. Kunlarning birida 7 yoshli Samira shunday savol berdi: «Odam uxlaganda ham nafas oladimi?», «Buvijon sizning muchalingiz nima?» Odatda, har qanday tafakkur jarayoni biron narsadan taajjublanish, hayron qolish va natijada turli savollarning tugllishi tufayli paydo boladi. Ko'pgina ota-onalar va ayrim tarbiyachilar agarda bolalar ortiqroq savol berib yuborsalar, «ko'p mahmadona bolma», «sen bunday gaplarni qayerdan o'rganding?», deb koyib beradilar. Natijada bola o'ksinib, o'z bilganicha tushunishga harakat qiladi. Ayrim tortinchoq bolalar esa hech bir savol bermaydilar. Bunday bolalarga turli mashg'ulotlar va sayohatlarda kattalarning o'zlari ham savol berishlari va shu bilan ularni faollashtirishlari lozim[4].

Har qanday tafakkur, odatda biron narsani taqqoslash, analiz va sintez qilishdan boshlanadi. Shuning uchun biz ana shu taqqoslash, analiz va sintez qilishni tafakkur jarayoni deb ataymiz. Sayohatlar bolalardagi tafakkur jarayonini faollashtirish va rivojlantirishga yordam beradi. Bolalar



tabiatga qilingan sayohatlarda turli narsalarni bir-biri bilan taqqoslaydilar, analiz hamda sintez qilib ko'rishga intiladilar. Nutq – bilishning asosiy vositasi. Bola nafaqat axborotni eshitadi, balki uni qayta ishlaydi va ifoda etadi. Nutqning rivojlanishi idrok, xotira va tafakkur bilan uzviy bog'liq. Agar 2 yashar bolaning so'z boyligi taxminan 250 tadan 400 tagacha bolsa, 3 yashar bolaning so'z boyligi 1000 tadan 1200 tagacha, 7 yashar bolaning so'z zaxirasi 4000 taga yetadi. Demak, bog'cha yoshi davrida bolaning nutqi ham miqdor, ham sifat jihatidan ancha takomillashadi[5]. Bog'cha yoshidagi bolalar nutqining o'sishi oilaning madaniy saviyasiga ham ko'p jihatdan bog'liq.

Kattalar bolalar nutqini o'stirish bilan shug'ullanar ekanlar, bog'cha yoshidagi bolalarning ba'zi hollarda o'z nutq sifatlarini tola idrok eta olmasliklarini unutmasliklari kerak. Bundan tashqari, bolalarda murakkab nutq tovushlarini bir-biridan farq qilish qobiliyati ham hali to'la takomillashmagan boladi. Tili chuchuklikni tuzatishning eng muhim shartlaridan biri, bola bilan tola va to'g'ri talaffuz etib, ravon til bilan gaplashishdir.

Xulosa va takliflar. Maktabgacha yosh davri bola bilish qobiliyatining shakllanishida hal qiluvchi davr hisoblanadi. Bu jarayonni ilmiy asosda tashkil qilish, individual yondashuv va o'yin faoliyatidan to'g'ri foydalanish pedagogik ish samaradorligini oshiradi. Shu bois tarbiyachilar va ota-onalarning psixologik bilimlarga ega bo'lishi zarur. Maktabgacha yoshda bola atrof-muhitni o'rganadi, idrok etadi, eslab qoladi, tafakkur qiladi va tasavvur qiladi. Bu esa uning kelajakdagi ta'lim olishi, muomala qilish va mustaqil fikrlash qobiliyatining poydevorini yaratadi. Bu yoshda bilish jarayonlari sezilarli sur'atda rivojlanadi. Diqqatning barqarorlashuvi, xotiraning kuchayishi, mantiqiy tafakkurning shakllanishi va nutqning faollashuvi aynan maktabgacha davrda boshlanadi. Shu bois bu jarayonlarga ongli tarzda ta'sir ko'rsatish muhim. Bilish jarayonlarini rivojlantirishda o'yin, ertak, ijodiy faoliyatlar muhim vosita hisoblanadi. Bola aynan o'yinda, rasm chizishda, rolli mashg'ulotlarda real hayot hodisalarini anglaydi va ularni qayta ishlab, ongida mustahkamlaydi. Bola bilish faoliyatini faqat bog'chada emas, balki uy sharoitida ham rivojlantirishi kerak. Shu bois tarbiyachilar ota-onalarga pedagogik-psixologik maslahatlar berib borishlari lozim. Individuallik va yosh xususiyatlarini inobatga olish zarur. Har bir bolaning rivojlanish tezligi va uslubi turlicha bo'lishi mumkin. Shu sababli har bir bola uchun mos yondashuv, yumshoq tarbiya va quvnoq ta'lim muhiti ta'minlanishi lozim.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Абдуллаева, М. Қ. (2019). *Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi*. Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti.
2. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.
3. Элкони́н, Д. Б. (1989). *Psixologiya igry* (O'yin psixologiyasi). Moskva: Pedagogika.
4. Piaget, J. (1952). *The Origins of Intelligence in Children*. New York: International Universities Press.
5. Sharipova, D. M. (2021). Maktabgacha yoshdagi bolalarda bilish jarayonlarining shakllanishi. *Ilmiy-amaliy pedagogik jurnal*, 3(2), 45–51.
6. G'aniyeva, M. A. (2020). Maktabgacha yoshdagi bolalarda tafakkur va tasavvur rivoji. *Bolalar rivoji va ta'limi*, 1(1), 22–28.
7. Cole, M., & Cole, S. R. (2001). *The Development of Children* (4th ed.). New York: Worth Publishers.
8. Bo'ronova, N. T. (2018). *Pedagogik va yoshga oid psixologiya*. Toshkent: O'zbekiston nashriyoti.
9. Bruner, J. S. (1966). *Toward a Theory of Instruction*. Harvard University Press.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PQ-4477-son qarori. "2020–2030-yillarda Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi".